O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI OLOT TUMANI HOKIMINING QARORI

Buxoro viloyati, Olot tumani, Olot ko’chasi, 73-uy. Tel: (365) 34-22-114, faks: (365) 34-22-539

2022 - yil 1 - noyabr 379-2-31-Q/22 Olot tuman hokimligi

Tuman hokimining 2022 yil 20 oktabrdagi 362-2-31-Q/22-sonli qarorini bekor qilish hamda tumanda 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi “Normativ huquqiy xujjatlar to'g'risida”gi O'RQ-682-sonli, O'zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to'g'risida”gi Qonunining 38-39-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida hamda tuman Adliya bo’limining 2022 yil 25 oktabrdagi 1-80/25-7/192-sonli taqdimnomasini inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hokimining 2022 yil 20 oktabrdagi 362-2-31-Q/22-sonli qarori tasdiqlash jarayonidagi texnik xatolik sababli bekor qilinsin.

2. Olot tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazining ish joylarining eng kam miqdorini band qilib qo'yish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda

raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o'rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni yigirma nafardan ko'pini tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha sonidan kelib chiqqan holda 146 kishini tashkil etadigan 100 foiz miqdorida, shu jumladan:

-o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 8,9 foiz (13 kishi);

-umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo`lgan yoshlar uchun 15,1 foiz (22 kishi);

-“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 45,2 foiz (66 kishi);

-O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar uchun 2,1 foiz (3 kishi);

-nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 3,4 foiz (5 kishi);

-pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 2,7 foiz (4 kishi);

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 2,7 foiz(4 kishi);

-odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,7 foiz (1 kishi);

-ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan kichik yoshli bolalari bo'lgan ishlamayotgan ayollar hamda “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftar” laridagi ishsizlar va mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar uchun19,2 foiz (28 kishi) miqdorida ish o'rinlari zaxirasi belgilansin.

4. Shaxslarning ko'rsatib o'tilgan toifalari uchun ish o'rinlari sanitariya-

gigiena me'yorlariga va xodim o'z mehnat majburiyatlarini to'siqsiz bajarishini ta'minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak.

5. Tashkilotlar rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-bandida ko'rsatilgan ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlasinlar.

6. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro'yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug'iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to'lash belgilab qo'yilsin.

7. Muhtojlar uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash bo'yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlik belgilanadi.

8. Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (A.Qoryog'diev) besh kun muddatda ushbu qarorning ilovasida ko'rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e'tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

9. Mazkur qaror “Olot hayoti” gazetasida e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Yangiev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Н.Нематова**

Olot tuman hokimining
2022 yil 1 noyabrdagi
379-2-31-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Olot tumanida korxona va tashkilotlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish tpishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar uchun band qilib qo'yilgan ish joylarining eng kam miqdori

№	Tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Ishlovchilar soni	Band qilib qo'yiladigan ish o'rinlari	Шундан								
					O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo`lgan yoshlar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogiron-ligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi qurbon-lari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan kichik yoshli bolalari bo'lgan ishlamayotgan ayollar hamda “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftar” laridagi ishsizlar va mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni.
1	Olot tuman XTB ga qarashli 1-son umumta'lim maktabi	Ma'rifat MFY	88	2	1		1						
2	Olot tuman XTB ga qarashli 2-son umumta'lim maktabi	Bunyodkor MFY	106	3			2						1
3	Olot tuman XTB ga qarashli 3-son umumta'lim maktabi	Usmonshayx MFY	111	3	1		1						1
4	Olot tuman XTB ga qarashli 4-son umumta'lim maktabi	Yosh botir MFY	53	1			1						
5	Olot tuman XTB ga qarashli 5-son umumta'lim maktabi	Denov MFY	98	2		1	1						
6	Olot tuman XTB ga qarashli 6-son umumta'lim maktabi	Davlatboy MFY	92	2			1						1
7	Olot tuman XTB ga qarashli 7-son umumta'lim maktabi	G'anchi-Chandir MFY	106	3			2						1
8	Olot tuman XTB ga qarashli 8-son umumta'lim maktabi	Xidreyli MFY	42	1			1						
9	Olot tuman XTB ga qarashli 9-son umumta'lim maktabi	Jayxunobod MFY	81	2			2						
10	Olot tuman XTB ga qarashli 10-son umumta'lim maktabi	Salo-qarovul MFY	68	2			2						
11	Olot tuman XTB ga qarashli 11-son umumta'lim maktabi	Arabxona MFY	50	1			1						
12	Olot tuman XTB ga qarashli 12-son umumta'lim maktabi	Bayot MFY	81	2			2						
13	Olot tuman XTB ga qarashli 13-son umumta'lim maktabi	Katta Bayot MFY	69	2			2						
14	Olot tuman XTB ga qarashli 14-son umumta'lim maktabi	Opshoq MFY	75	2			2						
15	Olot tuman XTB ga qarashli 15-son umumta'lim maktabi	Burjoq MFY	47	1			1						
16	Olot tuman XTB ga qarashli 16-son umumta'lim maktabi	Shayxlar MFY	63	2			1						1
17	Olot tuman XTB ga qarashli 17-son umumta'lim maktabi	Chovdur MFY	87	2			1						1
18	Olot tuman XTB ga qarashli 18-son umumta'lim maktabi	O'zbekiston MFY	54	1			1						
19	Olot tuman XTB ga qarashli 19-son umumta'lim maktabi	Qirtay MFY	81	2			2						
20	Olot tuman XTB ga qarashli 20-son umumta'lim maktabi	Qirlishon MFY	38	1			1						
21	Olot tuman XTB ga qarashli 21-son umumta'lim maktabi	Ko'l-Chovdur MFY	56	1			1						
22	Olot tuman XTB ga qarashli 22-son umumta'lim maktabi	Kesakli MFY	56	1			1						
23	Olot tuman XTB ga qarashli 23-son umumta'lim maktabi	Denov MFY	60	1			1						
24	Olot tuman XTB ga qarashli 24-son umumta'lim maktabi	Balanmachit MFY	43	1			1						
25	Olot tuman XTB ga qarashli 25-son umumta'lim maktabi	Xalifa MFY	72	2			2						
26	Olot tuman XTB ga qarashli 26-son umumta'lim maktabi	Bo'ribek-Chandir MFY	58	1			1						
27	Olot tuman XTB ga qarashli 27-son umumta'lim maktabi	Xosabo'yi MFY	48	1			1						
28	Olot tuman XTB ga qarashli 28-son umumta'lim maktabi	Navro'z MFY	87	2			1						1
29	Olot tuman XTB ga qarashli 29-son umumta'lim maktabi	Muxtor MFY	39	1			1						
30	Olot tuman XTB ga qarashli 30-son umumta'lim maktabi	Dilkor MFY	67	2			2						
31	Olot tuman XTB ga qarashli 32-son umumta'lim maktabi	Soin-qarovul MFY	50	1			1						
32	Olot tuman XTB ga qarashli 33-son umumta'lim maktabi	Paxtakor MFY	44	1			1						
33	Olot tuman XTB ga qarashli 34-son umumta'lim maktabi	Xidreyli MFY	55	1			1						
34	Olot tuman XTB ga qarashli 35-son umumta'lim maktabi	Asajam MFY	60	2			1						1

35	Olot tumani olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati	Ma'rifat MFY	61	2	1								1
36	Olot tuman 1-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Халқобод МФЙ	34	1			1						
37	Olot tuman 2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Маърифат МФЙ	34	1		1							
38	Olot tuman 3-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Бўрибек Чандир МФЙ	36	1			1						
39	Olot tuman 4-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Денов МФЙ	31	1			1						
40	Olot tuman 5-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Қумкашон МФЙ	38	1			1						
41	Olot tuman 6-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Жайхунобод МФЙ	35	1		1							
42	Olot tuman 7-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Давлатбой МФЙ	22	1			1						
43	Olot tuman 8-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Халифа МФЙ	24	1	1								
44	Olot tuman 9-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Човдур МФЙ	29	1			1						
45	Olot tuman 10-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Солоқоровул МФЙ	22	1			1						
46	Olot tuman 13-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Соинқоровул МФЙ	29	1			1						
47	Olot tuman 14-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Баёт МФЙ	28	1			1						
48	Olot tuman 15-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Оппоқ МФЙ	28	1					1				
49	Olot tuman 16-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Dilkor MFY	25	1		1							
50	Olot tuman 17-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Eski-Olot MFY	41	1		1							
51	Olot tuman 18-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Bayot MFY	31	1		1							
52	Olot tuman 19-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Ko`l chovdir MFY	28	1		1							
53	Olot tuman 20-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Shayxlar MFY	35	1		1							
54	Olot tuman 22-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Usmonshayx MFY	35	1		1							
55	Olot tuman 23-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Asajam MFY	33	1		1							
56	Olot tuman 24-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Navro'z MFY	39	1		1							
57	Olot tuman 25-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Xalifa MFY	25	1		1							
58	Olot tuman 28-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	Arabxona MFY	25	1		1							
59	Olot tuman 30-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	O`zbekiston MFY	23	1		1							
60	Olot tuman bolalar-o'smirlar sport maktabi	Yosh botir MFY	110	3	1			1					1
61	15-son musiqa va san'at bolalar maktabi	Bunyodkor MFY	43	1									1
62	Olot tuman "BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	Xalifa MFY	52	2		1							1
63	Olot tuman kasb-hunar maktabi	Yosh botir MFY	82	2	1								1
64	Olot tuman tibbiyot birlashmasi	Ma'rifat MFY	1809	28	2	5	10		1	2	1		7
65	Olot tuman sanitariya-epidimiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo`limi	Xalqobod MFY	77	2	1								1
66	Olot tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	Ma'rifat MFY	165	4	1					1	1		1
67	Olot davlat o'rmon xo'jaligi	Xalifa MFY	68	3					1		1		1
68	Olot tuman madaniyat bo'limi	Ma'rifat MFY	50	2		1							1
69	Olot tuman irrigatsiya bo'limi	Bunyodkor MFY	60	2			1						1
70	"OLOT TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI"	Yosh botir MFY	123	3	1		1						1
71	"OLOT COTTON CLUSTER" MCHJ	Denov MFY	223	5	1			1	1			1	1
72	Amu-Buxoro mashina kanali Olot tuman boshqarmasi	Bunyodkor MFY	690	8	1	1	1	1	1	1	1		1
	JAMI		**6628**	**146**	**13**	**22**	**66**	**3**	**5**	**4**	**4**	**1**	**28**